“Qizilqum ilmiy-tadqiqot stansiyasi” tashkil etildi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 2 mart kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar hamda Xatirchi tumanida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonida belgilangan vazifalarga asosan Navoiy viloyati yaylovlaridagi qorako‘l qo‘ylarining genofondini ilmiy asosida saqlash va undan samarali foydalanish, rangli qorako‘lchililkni rivojlantirish, qorako‘lchilik mahsulotlarini xalqaro talablar asosida laboratoriya sinovlaridan o‘tkazishni ta’minlash uchun maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi qoshida “Qizilqum ilmiy-tadqiqot stansiyasi” tashkil etildi.